

**MAKTAB O‘QUVCHILARIDA TARIXIY TAFAKKURNI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

*FarDU Pedagogika yo‘nalishi talabasi
Muhammadjonova O‘g‘iloy Bahodirjon qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada, tafakkur jarayoni haqida hamda tafakkur jarayonining kelib chiqish tarixi va tarixiy tafakkur jarayoni haqida ma’lumot shuningdek, bu jarayonlarning maktab o‘quvchilarida shakllantirishning pedagogik xususiyatlari haqida keng ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan.

Аннотация: В данной статье представлена обширная информация о мыслительном процессе, а также об истории возникновения мыслительного процесса и историческом процессе мышления, а также о педагогических особенностях формирования этих процессов у школьников.

Abstract: In this article, information about the process of thinking and the history of the origin of the process of thinking and the historical process of thinking, as well as extensive information about the pedagogical features of the formation of these processes in schoolchildren are provided.

Kalit so‘zlar: tafakkur operativ jarayon sistema klasifikatsiyalash tarixiy tafakkur jarayoni voqelik aniq faoliyat tasavvur.

Ключевые слова: мышление, операциональный процесс, системная классификация, исторический мыслительный процесс, реальность, конкретная деятельность, воображение.

Key words: thinking, operational process, system classification, historical thinking process, reality, concrete activity, imagination.

Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismlil va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi. Tafakkurning ikkinchi muhim belgisi voqelikni analizatorga bevosita ta’sir ko’rsatmay, ko’pchilik hollarda asboblar ko’magida olingan qo’shimcha belgilar yordamida anglanadiganlarni tushunish va namoyon qilish imkonini yaratuvchi shakldir. Hodisalarning qonuniyatlari, ichki aloqalari bizning ongimizda hodisalarning tashqi belgilarida vositali tarzda namoyon bo‘lishi bilan inson ichki, barqaror o‘zaro aloqalarning belgilarini aniqlab oladi.

Tafakkurning o‘ziga xos xususiyati bilish yoki amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan u yoki bu vazifani bajarish bilan bog‘liqligidan iborat. Tafakkur muammoli vaziyatdan, tafakkurning maqsadi bo‘lgan savolga javobdan boshlanadi. Tafakkur muammosini ko‘rib chiqqan A. A. Smirnov tafakkur va aqliy jarayonlarning

assotsiativ tarzda kechishini tafovutlash zaruriyati haqida ogohlantirgan edi. Gap shundaki, aqliy faoliyatda biz assotsiatsiyalardan keng foydalanamiz, chunki ular tafakkur masalalarini echishda ahamiyatli yordam ko'rsatadi. Aqliy jarayonlarning assotsiativ kechishida holat o'zgacha bo'ladi. tafovut shundan iboratki, bu vaziyatda o'z oldimizga hech qanday maqsad qo'ymaymiz, chunki hech qanday vazifani bajarmaymiz. Bunda bir jarayon ikkinchisi bilan almashadi, chunki ular bir-biri bilan assotsiativ tarzda bog'langan bo'ladi. Tafakkur jarayonlarining assotsiativ tarzda kechishi ko'p hollarda inson toliqqan bo'lib, hordiq olishni xohlayotganida kuzatiladi.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi.¹

Tafakkur ijtimoiy hayot sharoitida shakllanadi, u bolalarda keng predmetli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Tafakkur qilish – operativ jarayon hisoblanadi. Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiyashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. insonda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo'ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi. Tasavurning rivojlanishi, tafakkurning shakllanayotgan jarayoni bilan tavsiflanadi, bu shakllanish bolaning xayoliy tasavvurlarining ixtiyoriy ko'rsat-kichlari bilan bog'liqdir. Bunday imkoniyat maktabgacha katta yoshli bolalarda yanada koproq namoyon bo'ladi, chunki, bu yoshda bola yangi aqliy harakat usullarini juda tez o'zlashtirib oladi. Aqliy faoliyatda yangi usullarning shakllanib borishi, tashqi predmetlarning harakatini o'zlashtirib olishdagi bola harakati, ta'im-tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Tafakkurning asosiy va eng muhim xususiyati moddiy voqelikning turli tomonlarini ajratish va mustaqil ravishda yangi umumlashmalarni yaratish qobiliyatidir. Odam oddiy narsalar haqida fikr yuritar ekan, u ularning tashqi belgilari bilan cheklanmaydi, balki hodisaning mohiyatini ochishga intiladi, oddiy hayot haqiqatidan umumiy qonuniyat yaratishga harakat qiladi. Shubhasiz, inson ongida hali o'rganilmagan, to'liq foydalanilmagan zaxira va imkoniyatlar mavjud. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu zahiralarni to'liq ochish, fan va texnika taraqqiyotini faollashtirishdan iborat. Chunki har qanday kashfiyot, yangilik,

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tafakkur>

taraqqiyot inson aql-zakovati mahsulidir. Binobarin, sham ilm-fan va texnika taraqqiyoti ko‘p jihatdan gumanitar fanlarning rivojlanishiga bog‘liq.

Tarixni o‘rganish bo‘lajak pedagoglarda tarixiy tafakkurining yuksalishiga olib keladi. O‘tmish madaniy merosini o‘rganish murakkab jarayon sanaladi. Madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu g‘oyalarni yosh avlod ongiga singdirish uzluksiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq amalga oshirilishi zarur. Yangi O‘zbekiston barpo etish yo‘lida shaxsning har tomonlama yetuk, barkamol bo‘lib shakllanishini ta‘minlovchi muhitning yaratilishiga e‘tibor qaratilmoqda va bu yo‘lda keng ko‘lamli harakatlar amalga oshirilmoqda. O‘qituvchi maqomini yuksaltirish, uning jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirishga qaratilgan meyoriy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiiq etildi. Prezident Sh.Mirziyoev Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz havf-hatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Xoja Ahmad Yassaviy o‘zining ma‘naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo‘sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo‘lmoqda. Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko‘ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o‘zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo‘ylik, halollik, o‘z-o‘ziga talabchanlikni targ‘ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o‘quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o‘zini olib qochishga undaydi. Shuning uchun ham ta‘lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yana bir yiriq allomalardan biri Burxoniddiy Marg‘inoniydir. Burxoniddiy Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, iymon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g‘oyalari shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta‘limotining yirik nomoyondasi Burxoniddiy Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e‘tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o‘rinni egallaydi. Alloma Marg‘inoniy o‘zining axloqiy-huquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma‘naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularni qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish

uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e‘tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz deganlari bejiz emas. Ma‘lumki, tarixiy tafakkur tushunchasi fan yo‘nalishlarida o‘ziga hos tarzda ifodalanadi. Masalan falsafiy lug‘atlarda tarixiy tafakkur tushunchasi ajdodlar yaratgan moddiy va ma‘naviy boyliklarni kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta nomoyon bo‘lishi, eslanishi, qadrlanishi deb ta‘rif beriladi.

Faylasuf olimlardan V.Alimasov fikrlash chanqog‘i mustaqil fikrlashni tarkib toptirish manbai ekanligi[2]; A.Erkaev tafakkur erkinligini shakllantirish[3]; G.Metyuz bola rivojida falsafiy ta‘limotlarning o‘rnini[4] ko‘rsatib berish orqali mustaqil fikrlashning falsafiy talqiniga e‘tibor qaratganlar O‘quvchilarda shakllantirish zarurati bo‘lgan tarixiy ong bo‘yicha esa, Pespublikamiz olimlaridan D.Abdullajonova, J.Tulenov, I.Jabborov, R.Abdullayevlarning bevosita tarixiy xotira va tarixiy ong muammosiga²

Shuningdek, falsafiy lug‘atda tafakkur tushunchasiga ham ta‘rif berilib predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya‘ni qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning rotsional bosqichi deb ta‘rif beriladi. Psixologiyada Tafakkur voqyelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko‘rsatish darajasiga ko‘ra bir necha turlarga (ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmali-obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h.k.) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta‘lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev raisligidagi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat, deya ta‘kidlaganlari bejizga emas. Prezidentimiz ta‘kidlab o‘tganlaridek, biz yangi O‘zbekistonni qurishda jamiyat taraqqiyotini ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyatga tayanamiz. Yangi

² <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-sinf-oquvchilarida-tarixiy-tafakkurni-shakllantirishning-nazariy-jihatlar/viewer>

O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi degan shior bugungi islohotlarning amaliy ahamiyatini o‘zida mujassamlashtirgan desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Buning barobarida maktab ta‘lim tizimida o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya, ma‘naviyat va madaniyat ulashuvchi bo‘lajak pedagoglarni sifat darajasidan yuksaltirish ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, uning tarixini chuqur anglash, bir so‘z bilan aytganda tarixiy tafakkur va tarixiy hotira bilan qurollantirish zaruratini har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar tarixiy xotirani mazmunan tahlil qilganda tarixiy xotirada san‘at, urf-odat, marosimlar bilan bog‘liq axborotlar saralangan tarzda jamlanadi va saqlanadi, deb hisoblaydilar. Bu tushunchada san‘at va urf-odat, marosimlar bilan bo‘lgan axborotlar to‘g‘risida aytiladi, lekin tarixiy xotirada ular qanday nufuzga ega va ularni saqlanishi qay tarzda bo‘lishini tushunishimiz kerak. Tarixiy ong-tushunchasi tarix falsafasining bosh mavzusidir. Shu sababli biz bu yo‘nalishda uni tahlil qilmaymiz, faqat tarixiy nuqtai nazardan uni rivojlanish bosqichlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov shunday ta‘kidlagan edilar: Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilish-ga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu - tabiiy xol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi turilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Tarixiy ong ijtimoiy ongning turli xil shakllarida uning bir unsuri, bir parchasi sifatida chiqadi va bularning evolyutsiyasi, xilma-xilligi tabiat va jamiyatning evolyutsiyasi va xilma-xilligi bilan belgilanadi. Ana shu falsafiy dunyoqarashning bir unsuri jamiyat taraqqiyoti rivojlanishining o‘tmish holatini ko‘z oldimizda gavdalantiradigan tarix falsafasi yoki tarixiy ongdir.

Tarixiy ongni rivojlanishi bir necha bosqichlarni tashkil etadi. Tarix insoniyat egallagan bilimlardan biri sifatida ijtimoiy-hayotning turli jabhalarini qamrab oladi. Tarix insoniyat hayotining umumiy tafsilotidir. Agar tarixni keng ma'noda tushunadigan bo‘lsak, tarixiy tadqiqot va izlanishlar doirasi cheksizdir. Ammo tarixda alohida shaxs tarixiy vaziyatga ko‘rinarli va sezilarli ta'sir eta olmaydi. Diniy nuqtai nazardan qaraganda, tarixiy taraqqiyot, aynan tarixdan tashqarida yotadigan, ammo unga hal qiladigan darajada ta'sir ko‘rsatadigan kuchlarga bog‘liq. Ammo ko‘pgina hollarda ijtimoiy o‘zgarishlarning ibtido sababchisi sifatida, ba‘zida buyuk shaxs, ba‘zida amorf massa, braun harakatil ko‘rinishlarida inson tarixiy harakatning dalili bo‘lib keldi. Tarix fan sifatida alohida shaxsning ham, umuman jamiyatning ham ma‘naviy rivojlanishining ajralmas unsuri hisoblanadi. Tarix nafaqat insoniyat faoliyati va merosi, balki bu insoniyatning muayyan vaqt oralig‘idagi harakatlari va voqealar majmuidir. Tarix shu bilan birga vaqt uyg‘unligidir, u faqat vaqtda mavjuddir. Tarixiy ongda aks etgan tarixiy taraqqiyot, uning ziddiyatlari ala-quroq ko‘rinishi insoniyat tafakkurini doimo band qilib kelgan.

Zero, Shaxs tarbiyasi, inson kamoloti vatan ravnaqini belgilab beruvchi muhim omildir. Bugun shaxs shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi omillarni alohida inobatga olish kerak. Bunday omillarga nafaqat moddiy, g'oyaviy va psixologik sharoitlar, balki shaxsning shakllanishi ro'y bergan muhit ham mansubdir. Bu jarayonga turli davlatlarda olib boriladigan millatlararo munosabatlar va milliy siyosat ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu ayniqsa, shaxsiy hislatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday xislatlarga milliy o'z-o'zini anglash, g'urur, iftixor kabi tushunchalar kirishini e'tiborga oladigan bo'lsak, shaxsning axloqiy shakllanishi umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda kechadi deb xulosa qilish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tafakkur jarayonini o'rganish jaryonida o'quvchilar bu jarayon haqida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Ular tarixiy tafakkur jarayoni qanday ekanligi hamda maktab o'quvchilari uchun bu tushunchalar ularga qanday ta'sir ko'rsatishlari to'g'risida muhim ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Ularning bu jarayonlarga bo'lgan qiziqishlari juda ham ortdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.T.Nishonova, G.K.Alimova Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.
2. E.G'oziev. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy - eksperimental tahlil T.Noshir 2010.
3. Sh.A.Do'stmuhamedova, Z.T.Nishonova va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: Fan va texnologiyalar 2013.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O'zbekiston, 1997. 67-b
5. Egamberdieva N Ijtimoiy pedagogika, T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti 2009 yil, 44 bet 3
6. To'xtaxo'jaeva M.X, Nishonova S.N, Hasanboev J va b.q Pedagogika. Pedagogika nazariyasi va tarixi. I qism. Pedagogika nazariyasi T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 yil 58 b
7. Mirziyoev Sh.M Qonun ustuvorligi inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovidir, T.: O'zbekiston, 2017, 23 bet
8. M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y. 5. M.Hamdama. Ma'naviyat asoslari. T.: Fan va texnologiya. 2008 y
9. <https://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/102991/10.mavzu.Tafakkur.htm>
10. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, 2(11), 985-991.
11. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. *Science and Education*, 2(9), 309-314.

12. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 535-542.
13. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B3), 40-46.
14. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. *Journal of new century innovations*, 14(3), 33-36.
15. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, 4(1), 52-59.
16. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 18(1), 220-225.
17. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
18. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
19. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
20. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 162-165.
21. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 166-169.
22. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 158-161.
23. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.